

ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР
ВА АДАБИЁТШУНОСЛИК
МУАММОЛАРИ

МАТЕРИАЛЛАР
ТҮПЛАМИ
XIII



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР ВА
АДАБИЁТШУНОСЛИК МУАММОЛАРИ**

МАТЕРИАЛЛАР ТҮПЛАМИ

XIII

**"Дурдона" нашриёти
Бухоро – 2022**

81.2Ўзб-3

Т 49

Тилнинг лексик-семантик тизими, қиёсий типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари: материаллар тўплами, VII; тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: М.И.Гадоева; масъул муҳаррир: З.И.Расулов; Тошкент: "Дурдона" нашриёти, 2022 йил. 252 бет.

КБК 81.2Ўзб-3

83.3(5Ў)

Тўпламда Республикализ олимлари, илмий тадқиқотчиларининг филологик мавзулар доирасидаги, жумладан, муайян тил доирасидаги лингвистик қарашлари; қиёсий–типологик изланишлари; тилларни ўқитиш назарияси ва миллат, миллий маданиятнинг амалий глобаллашуви даврида тилдан фойдаланиш муаммолари, шунингдек, тилларни ўқитиш усулиёти; адабиётшунослик, таржимашунослик истиқболлари борасидаги фикр-мулоҳазалари ўз ифодасини топган.

Тўплам филологик йўналишдаги илмий изланувчилар, катта илмий ходим изланувчилар, тадқиқотчилар, магистрантлар ва талабаларга мўлжалланган.

Таҳрир ҳайъати:

Хамидов О.Х., (БухДУ профессори), Қаҳҳоров О.С. (БухДУ доценти), Ҳайдаров А. (БухДУ доценти.), М.И.Гадоева (БухДУ доценти), масъул муҳаррир Расулов З. (БухДУ доценти), масъул котиб Қобилова Н.С. (БухДУ доценти)

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:

филология фанлари номзоди, доцент М.И.Гадоева

Такризчилар:

Давлатова М.Х., Бухоро давлат тиббиёт институти инглиз тили кафедраси доценти

Қобилова Н.С., БухДУ Инглиз тилшунослиги кафедраси доценти

Тўпламдан ўрин олган мақолалардаги факт ва ракамларнинг ҳаққонийлиги, мазмуни, савияси ва саводхонлиги учун муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.

БухДУ Илмий кенгашида муҳокама қилинган ва нашрга тавсия этилган (5-сонли баённома, 29 декабрь, 2021 йил).

ISBN 978-9943-5080-6-4

FRAZEOLOGIK BIRLIKLER TARKIBIDA SOMATIZMLARNING IFODALANISHI

Karimova F. (BuxDU ingliz tilshunisligi kafedrasi magistranti)

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning ta’rifi hamda ularga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, frazeologik birliklarning tarkibi ifodalanishiga misollar keltirilib, ingliz va o’zbek tilida “bosh” somatizmiga tegishli iboralar ro’yxati keltirilgan.

Kalit so’zlar: frazeologik birliklar, barqaror birikmalar, somatizm, bosh

Annotation. This article illustrates the definition and main features of phraseological units. Furthermore, the expression of components are supported with examples, including one of the most common somatism “head” in both English and Uzbek languages.

Key words: phraseological units, stable combinations, somatism, head

Аннотация. Данная статья иллюстрирует определение и основные характеристики фразеологических единиц. Кроме того, выражение компонентов подкрепляется примерами, в том числе одним из наиболее распространенных соматизмов “голова” как в английском, так и в узбекском языках.

Ключевые слова: фразеологические единицы, стабильное соединение, соматизм, голова

Muloqot jarayonida fikrimizni bayon qilish uchun faqatgina so’zlar yordamidan emas, balki nutqqacha tayyor bo’lgan, bir necha barqaror so’zlarning bog’lanishidan hosil bo’lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Frazeologik birliklar tilimizning ko’rkamligida, lug’at boyligining rang-barangligini oshirishda muhim bo’lib, ulardan o’rinli foydalanish nutqning go’zalligini ta’minlaydi.

Frazeologiya yunoncha so’zdan olingan bo’lib, phrasis – ifoda, ibora va logos – ta’limot) degan ma’noni bildiradi.

Ikki va undan ortiq so’zlarning o’zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalarining xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo’lgan til birliklari *barqaror birikmalar* deyiladi. Barqaror birikmalarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik;
- Ma’no butunligi;
- Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so’zlar ma’no jihatdan uyg’unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko’pincha mazmunan bir leksemaga to’g’ri keladi va ko’chma ma’noda ishlataladi. [1]

Masalan, yuragi orqaga tortmoq – qo’rqmoq, eti suyakka yopishgan – ozg’in, qulog’i ding bo’lmoq – hushyor bo’lmoq kabi. Ushbu misollarning barchasi tayyor holda nutqda mavjud bo’lib, ular tarkibidagi so’zlarni boshqa bir so’zga almashtirib bo’lmaydi.

Gap tarkibida frazeologik birliklar yaxlit bir gap bo'lagi sifatida keladi. Frazeologik birliklarni tashkil etuvchi so'zlar faqat frazeologik birliklarning ichki qismlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, butun bir holda munosabatga kirishadi.

Masalan, Sharofat farzandining yutuqlarini ko'rib boshi osmonga yetdi. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesifasida keladi.

Iboralar tarkibi ifodalanishi jihatidan turlichay bo'ladi. Masalan:

1) Poliz ekinlari nomi qo'llangan frazeolgizmlar – o'zbek tilida “tarvuzi qo'ltig'idan tushdi”, “piyozning po'stidek bo'lmoq”, ingliz tilida “to be as cool as cucumber”, “a couch potato” kabi.

2) Mevalar nomi qo'llangan frazeologizmlar – “ana-mana deguncha, kampir shaftoli yeguncha”, “shoxida mayiz bo'lmoq”, ingliz tilida “the apple of your eye”, “to go bananas” kabi

3) Ichimliklar nomi qo'llangan frazeologizmlar – “miyaning qatig'i chiqmoq”, “mavzuning suvi chiqmoq”, ingliz tilida “water under the bridge”, “be like water off a duck's back” kabi

4) Gullar nomi qo'llangan frazeologizmlar – “qo'li gul”, “o'n gulidan bir guli ochilmagan”, ingliz tilida “shrinking violet”, “to gild the lily” kabi.

Bu qatorni cheksiz davom ettirish mumkin, chunki iboralar juda keng ko'lamli bo'lib tarkibida ifodalanuvchi so'zlar ham turlichay. Frazeologik birliklarni tahlil qilib chiqqanda inson tana a'zolari qatnashgan iboralarni ham ko'plab uchratish mumkin. Bunday iboralar *somatizmlar* deb nomlanadi. Nafaqat tilshunoslikda, balki tibbiyotda ham somatika tushunchasi bo'lib, u inson tana a'zosi va harakati bilan bog'liqlikni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, somatizmlar – inson tana a'zolari va ularning vazifalarinining metafora asosida boshqa bir narsaga o'xshatilishidir. Somatik frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri F.Bakk sanaladi. Hozirgi kunga kelib somatizmlar ko'plab ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylangan. Somatik iboralarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

“Bosh” so'zi ham ingliz tilida, ham o'zbek tilida eng ko'p uchraydigan somatizmdir. “Bosh” somatizmi ishtirok etgan frazelogik birliklar quyidagilar:

boshga tushgan (kelgan), boshda bor, boshdan kechirgan, boshiga yog'ilgan, boshiga solmoq, bosh og'ritmoq, bosh qotirmoq, biror bir ishning boshini ushlarimoq, bosh burmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, boshga bitgan balo, boshga qo'ndirmoq, boshi bog'liq, boshi buzuq, boshiga yetmoq, boshiga ko'tarmoq, boshiga suv quymoq, boshiga urmoq, boshiga chiqmoq, boshiga o'tqazib qo'yamoq, boshida yong'oq chaqmoq, boshida kaltak sinmoq, boshida qolmoq, boshi yostiqqa tegmoq, boshi ketmoq, boshi ko'kka yetmoq, boshi toshdan bo'lmoq, boshini aylantirmoq, boshini bog'lamoq, boshini bukmoq, boshini yemoq, boshini ikkita qilmoq, boshini silamoq, boshini tikmoq, boshini xam qilmoq, boshini qotirmoq, boshi ochiq, boshi chiqmaslik, boshi qorong'i, boshi shishmoq, boshi qotmoq, bosh ko'tarib yurmoq, bosh ko'tarmoq, bosh olib ketmoq, boshi oqqan tomonga ketmoq, bosh ko'tarib yurmoq, bosh suqmoq,

bosh tortmoq, bosh to'lg'amoq, bosh urmoq, bosh ustiga, bosh egmoq, bosh qashimoq, bosh qo'shmoq, katta boshini kichik qilib, ishi boshidan oshmoq, oyog'iga bosh qo'ymoq, bosh boqmoq [2]

Ko'rinib turibdiki, "bosh" somatizmi o'zining nisbatan nutqda ko'proq qo'llanishi bilan farqlanib turadi. Jumladan, ingliz tilida ham "Head" somatizmi keng qo'llaniladi. Ularga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Able to do something standing on one's head, bang your head against a brick wall, beat something into someone's head, bite someone's head off, bring something to a head, bury one's head in the sand, can't make heads or tails out of something, drum something into someone's head, fall head over heels in love, from head to toe, get a head start on something, get your head above water, get someone or something out of one's head, give someone head's start, go over someone's head, go to someone's head, have a good head on your shoulders, head someone or something off, hit the nail on the hand, in over one's head, lose your head [3]

Demak, frazeologik birliklar ularning bir qismi ko'pincha ko'chma ma'noda bo'lganligi uchun obrazlilikka boy bo'ladi. Inson tana a'zolari qatnashgan frazeologizmlar nutq faoliyatida eng ko'p ishlataladigan elementlardan biri bo'lib, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish nutqimizning yanada jozibador bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://hozir.org/reja-barqaror-birikmalar-haqida-malumot.html>
2. "O'zbek tilining izohli lug'ati", Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent
3. <https://www.thoughtco.com/idioms-and-expressions-with-head-4091924>

TEACHING DIFFERENT AGE GROUPS IN ENGLISH AS A SECOND/FOREIGN LANGUAGE SETTING

Vazira Zabieva

Language acquisition is considered to be very challenging for anybody, who decided to learn a foreign language. In spite of having complicated grammar structure and difficult pronunciation, English has become one of the highly demanded languages worldwide. So in order to best enable students, who want to learn or master English, English language classes should be adapted to the age of the students and taught accordingly.

Key word: ESL, effective, target language, instructor, activity

English language classes are usually conducted in groups. This is true for both , pre-school children as well as schoolchildren, attending lower and higher grades. It is necessary that the teachers adapt the curriculum, so that it matches the students' age and abilities. For example, the youngest students will most likely master English through various games , singing and other interactive